QAHRAMONLARINING O‘ZLIKNI ANGLASH RUHIY-PSIXOLOGIK OLAMI

Ilmiy rahbar:Qurbonova Feruza Ilhomovna,
dotsent, f.f.d.
A'loxon Erkinova, Zarina Sattorova,
Feruza Gadoymurodova, magistr
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti
e-mail: feruzaq42@.gmail.uz
Orsid: 0009-0006-1259-336X

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada turli vaziyat va rakurslarda kuzatilayotgan insonni tasvirlashda ijodkorning dunyoqarashiga bog‘liq bo‘lgan ruhiy-psixologik jarayon bo‘lib, ayni bir voqeaga ijodkorlar turlicha munosabat bildirishlari mumkin. Ayni fikrning tasdig‘ini “Donishmand Sizif” romani misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Antik dunyo adabiyotidan boshlab bugunga qadar Sizif to‘g‘risida ko‘plab asarlar yaratilgan. Biroq bu asarlarda Sizif shaxs sifatida turlicha namoyon bo‘ladi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье при изображении человека, наблюдаемого в разных ситуациях и ракурсах, речь идет о мыслительно-психологическом процессе, который зависит от мировоззрения творца, и на одно и то же событие творцы могут реагировать по-разному. Подтверждение этой мысли можно наглядно увидеть на примере романа «Мудрый Сизиф». О Сизифе создано множество произведений, от литературы древнего мира до наших дней. Однако в этих произведениях Сизиф как человек предстает иначе.

ANNOTATION: In this article, when depicting a person observed in different situations and perspectives, it is a mental and psychological process that depends on the creator's worldview, and creators can react differently to the same event. The confirmation of this idea can be clearly seen in the example of the novel

"The Wise Sisyphus". Many works have been created about Sisyphus, from the literature of the ancient world to today. However, in these works, Sisyphus appears differently as a person.

Kalit so‘z: yaxshilik va yomonlik, sadoqat va xiyonat, qanoat va ochko‘zlik, ma’rifat va jaholat.

Ключевые слова: добро и зло, верность и предательство, удовлетворение и жадность, просвещение и невежество.

Key word: good and evil, loyalty and betrayal, satisfaction and greed, enlightenment and ignorance.

sullar asosida o‘rganish davri boshlandi. Shu tarzda milliy adabiyotimizdagi adabiy an’analar, tajribalar, yangilanishlar va dunyo adabiyotining yangiliklari badiiy mushtaraklik kasb etib, uyg‘unlashayotganligi hamda tarixiy romanning manbalari, o‘rganish adabiyotshunoslikning muhim va dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Badiiy adabiyot barcha zamonlarda insonning orzu-umidlari, his-kechinmalari, ruhiyatidagi eng ulug‘vor, eng oliy va shuning barobarida eng nozik va ojiz holatlarni umumlashtirgan holda yaxlit tasvirlaydi. Har qanday badiiy asarda ifodalangan g‘oya, tabiiyki, muallif falsafiy konsepsiyasining ifodasidir. Unda ijodkorning olam va odamga, inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarga, inson ichki menida kechayotgan evrilishlarga bo‘lgan munosabati aks etadi. Ijodkor konsepsiyasi bir yoki bir necha qahramon zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Har doim ichki qarama-qarshi qutb: yaxshilik va yomonlik, sadoqat va xiyonat, qanoat va ochko‘zlik, ma’rifat va jaholat o‘rtasida kechadigan ayovsiz kurash tasvirlangan badiiy asarlarning bosh qahramoni Insondir. Qadimgi yunon afsonalarida Sizif og‘ir gunohga qo‘l urgan, xudolar qahriga uchragan va sodir etgan jinoyatiga yarasha jazoga tortilgan inson sifatida talqin etiladi. Ammo uning qanday gunoh sodir etganligi, shaxsiyati, tabiati, inson sifatida o‘ziga xosligi turlicha tasvirlangan. Homerning “Odisseya”sida Sizif hiylakor, dog‘uli, makkor, katta mol-

mulk egasi, zehni o‘tkir o‘lim ma’budi Tanatni ham o‘z yolg‘oniga ishontira olgan, nihoyatda ustasi farang odam sifatida tasvirlangan.

Bu dunyoda yashayotgan insonlar imkon boricha tirik qolishga intiladi. Hayotni sevishi va tirik qolishga harakat qilishni jinoyat sanash mumkinmi?! Ikkinchi tomondan, Sizif xudolar hukmiga qarshi chiqan isyonkor. Ilohiy qonunlarga qarshi chiqish mumkin emasligi ham aksioma. Ana shunday qarama-qarshi fikrlarga turtki beradigan Sizifga, tabiiyki, har bir kitobxon o‘z dunyoqarashi va e’tiqodidan kelib chiqib baho beradi.

Ko‘rinadiki, Sizif obrazidagi ko‘pqatlamlilik ijodkor konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liq. Alber Kamyu esa Sizif timsolida tafakkur ozodligi o‘limdan qudratli ekanligi ekanligi, og‘ir mehnat va mashaqqatlar inson ongini o‘stirishi tiriklik va fikrlashning oliy saodatga tengligi, abadiy jazoga mahkum inson o‘zini ruhan ozod his etishi tasvirlangan. Insonni kishanband qilish mumkin, ammo uning fikrlarini, hislarini zanjirband qilish, tuyg‘ularini cheklash imkonsiz. Kamyu Sizifni mifologik va o‘zidan oldingi yozuvilardan farqli o‘laroq oqlaydi. Uning xatti-harakatlarini olqishlaydi.

Zevs tabiatidagi ayyorlik, zulm-zo‘ravonlik va Sizif xarakteridagi zukkolik, aldamchilikni qiyoslash ham turlicha xulosalarga olib keladi. Sizif baxtsizlikdan baxt topa olgan, taqdir izmiga qullarcha bo‘ysunmay, ma’nisizlikdan ma’no-mazmun topa olgan donishmand, zako, matonatli inson.

Adibga ko‘ra, hayotda insonga baxt-saodat uchun berilgan muddat – toshning cho‘qqidan pastga tushish vaqtiga teng, xolos. Odam bolasi o‘ziga atalgan baxt lahzalarini mavjudligini fahmu idrok etsa, umri mazmun kasb etadi.

Xurshid Do‘stmuhammadning romanni “Donishmand Sizif” deb nomlashining o‘ziyoq muallif falsafiy konsepsiyasiga bir qadar oydinlik kiritadi. X.Do‘stmuhammad va Alber Kamyu talqinidagi Sizif obrazlariga o‘xshashlik seziladi. Har ikkala asarda ham Sizif aqlli, ziyrak, mushohadakor, o‘z tanlagan yo‘lidan qaytmaydigan maqsadi amalga oshishi uchun qiyinchiliklardan cho‘chimaydigan, o‘ziga ishongan irodasi mustahkam inson. U yordamga muhtoj,

ammo unga madad berish tugul dalda beradigan biror kishi yo‘q. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, u zimmasiga yuklangan og‘ir vazifani bajarish uchun kuch-qudrat topa oladi.

Zevs inson irodasini boy bersa, butun olam o‘z ma’nosini yo‘qotishini anglab yetgan va shuning uchun harakatdan to‘xtamaydi. “Yoriltosh”, “Donishmand Sizif” va “Nigoh” qissalarida yozuvchi inson og‘ir damlarda boshqalarning hamdardligiga muhtojligini psixologik jihatdan asosli tasvirlaydi.

Islomiy e’tiqodga ko‘ra, inson o‘z qismatiga rozi bo‘lishi kerak. Muallif Sizif obraziga ana shu qarashni singdirgan. Sizif o‘z qismatini taqdiri azal tomonidan o‘qilgan hukmni so‘zsiz qabul qiladi. Garchi o‘zini Zevs nohaq jazolagan deb o‘ylasa ham haqiqat uchun kurashadi. Hayotda o‘limdan kuchliroq narsa borligini isbotlashga urinadi va o‘zining haqligini amalda isbotlamoqchi bo‘ladi.

Aytish mumkinki, maxluqotlar ichida aql-idrok, tafakkur va iroda ato etilgan Allohning yerdagi xalifasi, yakkayu yagona yaratiq hazrati Insondir. Uning Haq oldidagi azizligi va “koinot gultoji” ekanligi ham shunda.

Sizif yovuz, ma’lun kimsa sifatida badarg‘a qilingani, o‘z sha’nini himoya qilish imkoni yo‘qligini o‘ylar ekan, goh g‘azablanadi, goh o‘z-o‘zini istehzo bilan malomat qiladi, goh raqiblariga qarata bor haqiqatni (garchi raqiblari uning yonida bo‘lmasa ham) baralla aytadi.

Adabiyotshunos D.To‘rayev Sizifning tabiati to‘g‘risida fikr yuritar ekan, uning harakteriga xos salbiy jihatlar makr, xiyla, ta’ma, shon-shuhratga o‘chlik, tovlamachilik, firibgarlik Gomerdan Jeyms Joysgacha ijodkorlar asarlarida tasvirlanganligi alohida ta’kidlab ko‘rsatadi. Xurshid Do‘stmuhammad “Qahramoni” nodon zamondoshlari ustidan kuluvchi, o‘z qadrini biluvchi, Faust kabi o‘zini hammadan ustun va dono deb o‘ylovchi qaysar inson qilib ko‘rsatadi” deb yozadi D.To‘rayev va o‘z fikrlarini romandan keltirilgan aniq misollar bilan asoslab beradi.

Badiiy asar kayfiyatining inson ruhiyatiga bevosita va bilvosita ta’siri badiiy mushohada teranligi hamda badiiy estetik salohiyatining ichki qonuniyati bir

butunlikda uyg‘unlashib talqin etilishi yozuvchining yutug‘i hisoblanadi. Adib qahramon ruhiyatini tahlil qilar ekan, har bir personaj yashashdan maqsad va ma’no qidiradi. Olloh tomonidan buyurilgan farz va amallarni ikki dunyo mezonidan kelib chiqib baholaydi va baholi qudrat bajaradi, shunga ko‘ra romanda psixologik, falsafiy va ilohiy tushunchalar badiiy umumlashma mazmun kasb etadi.

Chorak asr davomida tarix va inson munosabatlarini idrok va ifoda etish tamoyillari tamomila o‘zgardi. Badiiy haqiqat ijtimoiy-siyosiy hayot tasviridan ustun qo‘yilib, Arastu davridayoq tasdig‘ini topgan mavqeini egalladi. Endilikda, personaj aksariyat sho‘ro romanlarida kuzatilganidek, voqelikka ilova emas, balki o‘z o‘y-xayol va xatti-harakati bilan tirik inson sifatida xolis tasvirlana boshladi.

Boshqacha aytganda, alohida shaxs borlig‘i ijtimoiy voqelikdan ko‘ra murakkabroq hodisa va uni tushunish va izohlash muhim ekani poetik idrok etila boshladi. Globallashuv davri shiddati ta’sirida o‘z milliy qiyofasidan ayrilib qolmaslikka intilayotgan kishilar ruhiy intellektual olami, tuyg‘ular dunyosini ko‘rsatishga ehtiyoj ortdi. Nuqul kitobxonga o‘rnak bo‘lish va unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish missiyasini tashuvchi, ammo o‘z shaxsiy hayoti, insoniy tuyg‘u-kechinmalaridan mahrum trafaret adabiy qahramonlar inkor etildi.

Bu hol badiiy nasrga kundalik turmushning adoqsiz ikir-chikirlariga o‘ralashib yashayotgan – el qatori oddiy odamlar obrazini olib kirdi. Polvon, usta, duradgor, cho‘pon, dehqon, qorovul, farrosh, hatto qishloqdan shaharga kelib biror ijtimoiy mavqe egallay olmagan, ammo millat ruhini tashuvchi o‘zini anglab, odamlar orasidagi o‘rnini topib olishga intilayotgan, Q.Yo‘ldoshev ta’biri bilan aytganda, “qahramon bo‘lmagan qahramonlar” tasviriga ham e’tibor ortdi. Aslida, chinakam roman kundalik turmush ikir-chikirlari bilan qanoat tuyishi mumkin emas. Bunda u o‘zining ijtimoiy zalvori, ya’ni millat fikriy-hissiy qamrovini belgilash missiyasidan mahrum bo‘ladi.

Muhammad Salomning “Katta xonadon” romani ham millat kishilari turfa qiyofalari, betakror fe’l-atvorini haqqoniy tasvirlagani, xarakterlar yorqinligi, o‘zbekona turmush tarzi ichdan nurlantirilgani, hayotiy ekani bilan muayyan estetik

qimmat kasb etadi. Bizningcha, bir xonadon muhitining betakror tasvirlari shu oila inson va jamiyatni anglash modeli ekanini ko‘rsatadi. Zotan, adibni tashvishga solayotgan bosh omil milliy o‘zlikni asrab qolish muammosidir. Umuman, dunyo adabiyotida namoyon bo‘layotgan janriy sinkretizm hodisasi mustaqillik davri o‘zbek romanlari qiyofasini belgilovchi muhim faktordir. S.Meliyev ta’kidlaganidek, biz dunyo uchun faqat o‘zligimiz va o‘zbekligimiz bilan qadrlimiz, qiziqarlimiz.

Zotan, adabiyot hamisha go‘zallik, ezgulik va nurafshon hislarni tarannum etish, ilohiy ruh ifodachisi bo‘lishni o‘zining ezgu missiyasi deb bilgan. Biz adabiy-ma’naviy zaxirasi yuksak, ma’naviy tahdid va iste’dodsizlikka yon bosmagan ulug‘ xalqmiz. Milliy adabiyotimiz nafaqat mazmun zalvori, balki shakliy-uslubiy go‘zalligi, ezgulik hamda nafosat ifodasiga ehtiyojmand kitobxonlari bilan barcha davrlar talotumlaridan omon chiqib, insoniyat estetik xazinasini boyita olgan.

Shunday ekan, o‘zbek romanchiligidagi bugungi izlanishlar o‘z ijobiy samaralarini berishi aniq. Romanchilikdagi izlanishlar muammosi adabiy tanqidchilikda muayyan bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Bizningcha, san’at asari sifatida mustaqil borliq bo‘lgan har bir romanni muallif badiiy falsafasi, odam va olamga munosabati, xayolot dunyosining qamrovi, hayotiy vaziyat-holatlarni baholash tarzi, roman kompozitsiyasi, xronotopi, poetik ifoda usullari, qahramon hissiy-intellektual dunyosida sodir bo‘lgan evrilishlar e’tiqodiy asosi, badiiy tasvir vositalari nuqtayi nazaridan o‘rganish lozim.

Hayot inson intellektiga bo‘ysunmaydigan murakkab va cheksiz yashirin imkoniyatlarga to‘liqdir. Oltinchidan, badiiy haqiqat tasvirga olingan narsa-hodisa mohiyatini ijodkor poetik tafakkuri va istaklariga bog‘liq tarzda ifodalab, abadiy (nisbiy) haqiqatlarni tasdiqlaydi. Demak, badiiy asarga real voqelikning ob’ektiv va konkret in’ikosigina deb qarab bo‘lmaydi. Yettinchidan, san’at asarida axloqiy, ilmiy, diniy, estetik qadriyatlar mujassamlashadi. Badiiy adabiyotning real hayotga ta’sir etishi uning kitobxon ma’naviy-ruhiy butunligini ta’minlashi ma’nosida tushunilishi mumkin. Zotan, zamonaviy o‘zbek romannavislari alohida odamning

o‘z aql-farosati, hissiy idroki bilan mutlaq g‘oyani e’tirof etishini ko‘rsatish, shu a’molga kelish yo‘lini badiiy ifodalashga urinishmoqda. Ular adabiy qahramon ong-shuuri shaffoflashuvi, ruh sokinligiga erishuvi o‘z ilohiy mohiyatini anglashi orqali kechishini chuqur anglab yetishdi. Demak, o‘zbek romannavislari odamning mohiyati ijtimoiy g‘oyalarga nechog‘lik bog‘lanishida namoyon bo‘lmasligi, bu hol badiiy asarning estetik jihatini nazardan qochirish ekanini tushunishdi. Aynan shu, yangi talqin, mustaqillik davri romanlari poetikasini tarixiy-adabiy an’analar uyg‘unligida ko‘rishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mustaqillik davri adabiyoti. – T.: Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
2. To‘rayev D. O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – T.: Universitet, 2001.
3. Do‘stmuhammad X. Roman: Saylanma.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. Do‘stmuhammad X. Izhor.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
5. Umurov H. Badiiy ijod asoslari.-Toshkent, 2001.-B. 119.
6. Umurov H. Adabiyot nazariyasi.-Toshkent: Sharq, 2002. -B. 256.
7. Xolmurodov A. Roman va ruhiyat. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1999.
8. V
I
I
.
1
.